



THE THEOLOGICAL FOUNDATIONS OF ALISHER NAVAIY'S PHILOSOPHICAL HERITAGE

Toji Omonovich Norov

Professor of the Department of Philosophy

Doctor of Philosophical Sciences (DSc)

Toshkent State University of Economics

E-mail: tajonorov@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Navoi's philosophical heritage, philosophy, religion, belief, theology, eternal, the world of the infinite, unity, existence, ideology, time, space, Truth, reality, science, enlightenment, conflict, momentum, eternity, man, eternity.

Received: 19.04.26

Accepted: 20.04.26

Published: 21.04.26

Abstract: This article is devoted to an analytical study of the theological foundations of the philosophical views of Amir Alisher Nizamiddin Navoi. However, the fact that the socio-spiritual environment of the era in which the thinker lived was based on high spirituality formed on the basis of the Islamic religion determined the essence of his philosophical heritage. Ideologies of various periods also played an important role in the study of Alisher Navoi's spiritual heritage. In his heritage, the view that the universe, man, and all other beings appear, live (exist) and disappear by the will of Allah is given priority, and only eternal, absolute existence is inherent in Allah. However, since religion and related concepts were condemned in the Soviet ideology, the chapters related to theology, which formed the spiritual basis of the thinker's works, were limited or shortened, and their true content was interpreted differently. The article analyzes and concludes the essence of the deep philosophical views reflected in the thinker's works through direct and vivid examples.

ALISHER NAVOIY FALSAFIY MEROSINING ILOHIY ASOSLARI

Toji Omonovich Norov

"Falsafa" kafedراسi professori, Falsafa fanlari doktori (DSc)

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

E-mail.: tajonorov@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Navoiy falsafiy merosi, falsafa, din, e'tiqod, teologiya, qayyum, kasrat olami, vahdat, vujud, mafkura, zamon, makon, Haq, haqiqat, ilm, ma'rifat, ixtilof, jadal, azal, adam, abad.

Annotatsiya: Ushbu maqola Amir Alisher Nizomiddin Navoiyning falsafiy qarashlarining ilohiy asoslari tahliliy tadqiqiga bag'ishlangan. Vaholanki mutafakkir yashagan davr ijtimoiy-ma'naviy muhit Islom dini zaminida shakllangan yuksak ma'naviyatga asoslanganligi uning falsafiy merosi mohiyatini belgilagan. Alisher Navoiy ma'naviy merosini o'rganishda har xil davr mafkuralari ham muhim o'rin tutgan. Uning merosida olam,odam, boshqa barcha mavjudodlar Ollohning irodasi bilan paydo bo'ladi yashaydi(mavjud bo'ladi) va yo'qlikka ketadi, faqat boqiy, mutlaq mavjudlik Ollohga xos degan qarash asosiy o'ringa qo'yilgan. Lekin, sho'ro mafkurasida din va u bilan bog'liq tushunchalar qoralangani sababli, mutafakkir asarlarining ma'naviy asosini tashkil qilgan ilohiyot bilan bog'liq boblari cheklangan yoki qisqartirib, haqiqiy mazmuni boshqacha talqin qilingan. Maqolada mutafakkir asarlarida o'z aksini topgan teran falsafiy qarashlarning mazmun-mohiyati bevosita va yorqin misollar orqali tahlil va xulosalar berilgan.

ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОИ

Тожи Омонович Норов

Ташкентский государственный экономический университет

Профессор кафедры «Философия», доктор философских наук (DSc)

Эл. почта: tajonorov@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: философское наследие Навои, философия, религия, вера, теология, вечность, мир бесконечности, единство, существование, идеология, время, пространство, Истина, реальность, наука, Просвещение, конфликт, импульс, вечность, человек, вечность.

Аннотация: Данная статья посвящена аналитическому исследованию богословских основ философских взглядов Амира Алишера Низамиддина Навои. Однако сущность его философского наследия определяла социально-духовная среда эпохи, в которой жил мыслитель, основанная на высокой духовности, сформированной на основе исламской

религии. Важную роль в изучении духовного наследия Алишера Навои сыграли также идеологии различных периодов. В его наследии приоритет отдается взгляду, согласно которому вселенная, человек и все другие существа появляются, живут (существуют) и исчезают по воле Аллаха, и только вечное, абсолютное существование присуще Аллаху. Однако, поскольку религия и связанные с ней понятия осуждались в советской идеологии, главы, посвященные богословию, которые составляли духовную основу трудов мыслителя, были ограничены или сокращены, а их истинное содержание интерпретировалось по-разному. В статье анализируется и подводится итог сущности глубоких философских взглядов, отраженных в трудах мыслителя, на прямых и наглядных примерах.

Kirish. Amir Alisher Nizomiddin Navoiy yashagan davr diniy mafkura ustuvorlik kasb etgan bo'lib, u ayrim hollarda mutaassiblashgan tarzda davlat mafkurasiga aylantirilar edi. Mutafakkir aynan ana shunday jaholat mafkurasiga qarshi fikrlari bilan ajralib turadigan o'rta asr daho faylasuflaridan biridir. Uning ma'naviy merosi, zamon va makon chig'iriqlaridan muvaffaqiyatli o'tib, yashab kelayotgan barhayot umuminsoniy g'oyalari tizimidan munosib o'rin olgan. Vaholanki, uning insonparvarlik g'oyalari va amaliy faoliyati o'z davri saroy ayyonlari, siyosatchilari tomonidan xushlanmagan bo'lsa ham, ochiqchasiga xiyonat yo'lini tutgan bo'lsalar ham o'z aql-zakovati bilan bunday sinovlardan doimo muvaffaqiyat bilan o'tardi. Biz uchun muhim jihati, mutafakkirning o'z davri va ungacha bo'lgan davrlardagi olam, borliq, odam va jamiyatga doir falsafiy qarashlardagi mafkuraviy yondashuvlarda o'ta xolis, irfoniy-ma'rifiy, ya'ni ilmiy munosabatda bo'lganligidir.

Asosiy qism. Alisher Navoiy ma'naviy merosini o'rganishda har xil davr mafkuralari ham muhim o'rin tutgan. Masalan, sho'ro mafkurasida din va u bilan bog'liq tushunchalar qoralangani sababli, mutafakkir asarlarining ma'naviy asosini tashkil qilgan ilohiyot bilan bog'liq boblari cheklangan yoki qisqartirib, haqiqiy mazmuni boshqacha talqin qilingan. Vaholanki, aynan (ana shu) boblarida mutafakkirning ontologiyaga oid qarashlari tizimining ilohiy bayoni o'z aksini topgan edi. Misol uchun "Hayratul-abror"ning 1974 yilda G'.G'ulom nashriyotida chop etilgan nasriy bayonida[1.145], Navoiy davri musulmon Sharqi odobi va an'alariga xos bo'lgan asarlari

avvalida, Allohga hamdu-sanolar, paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v.) ga na't va duoyi salovotlar, aziz avliyolarga duoyi xayrlar keltirilgan avvalgi 12 bobigacha boʻlgan qismi tushirib qoldirilgan.

Shuningdek, asarning Xoja Bahouddin Naqshbandga bagʻishlangan 21 bobi, iymonga bagʻishlangan (Avvalgi maqolot) 22 bobi, Islom dini mohiyatiga bagʻishlangan 24 bobi, soʻfiylik tariqatining yirik namoyondasi Ibrohim Adhanga bagʻishlangan 25 boblari tushirib qoldirilgan. Lekin, shoʻro davri mafkurasining ta'qib ob'ekti diniy mavzu boʻlganligi bois Navoiy davrida, uning asarlarida ham tanqid ostiga olingan zolim podshohlar, adolatsiz vazirlar, ayniqsa, riyokor shayxlarni ayovsiz fosh etgan boblariga asosiy e'tibor qaratilgan. Umuman, Navoiy ijodiy merosi va amaliy faoliyatiga feodal-klerikal, ya'ni feodal-diniy adabiyot vakili sifatida talqin qilishga urgʻu berilar edi[2].

“Saddi Iskandariy” dostonining 1978 yilda, Gʻofur Gʻulom nashriyotida chop qilingan nasriy bayonida ham shu kabi holni koʻrish mumkin. Xususan, asarning Alloh hamdi, paygʻambarga na'tiga bagʻishlangan dastlabki 5 bobi tushirib qoldirilgan. Zero, xuddi aynan ana shu boblarida mutafakkirning borliq falsafasining asl mazmuni boʻlgan, ilohiyot falsafasi oʻz ifodasini topgan. Jumladan, dostonning birinchi bobida:

Vujud ahlining komi judung bila,

Kelib jud qoyim vujudung bila.

Vujudung qachon qilsa zohir qidam,

Boʻlub borcha ashyo vujudi adam[3.7-34], degan genial panteistik falsafaga oid baytlar bilan boshlanadi.

Mazmuni: olamdagi barcha ashyolarning vujudi Sening vujuding va saxovating tufayli paydo boʻlgan. Asl vujudiy qayyumlik, ya'ni borlik Sengagina xos, qolgan narsalar faqat Sening zohiring boʻlib, ular shunchaki shaklga egadirlar. Boshqa ashyolarning vujudi, adamga – yoʻqlikka aylanadi. Sengina mangu, qoyumi mutlaq boʻlib qolaverasan, degan ma'noni beradi.

Asarning 9-bobini nomlanishi va bobning avvali paygʻambar na'tiga bagʻishlangan va “Aningdekki, anbiyoi mursal anjumani anjumigʻa Muhammad arabiy “ayni”din quyoshliq ayon boʻldi, salotini oliy xaylida dogʻi Shohi Gʻoziy vujudi bojudidin hamul hol zohir boʻlgʻondin shammae zohir qilmoq xaladullohu mulkahu va sultonahu va a'lo shonahu”[4.64-70] deb nomlangan boʻlib, bobning nomi, “Oliy maqomlar orasida shoh Gʻoziyning ham marhamatli vujudida shunday hol borligidan oz-moz soʻz yuritmoq; Xudo uning mamlakatini barqaror va shohligini abadiy qilgʻay” deb tahrir qilinib, nasriy bayoni berilgan. Tabiiyki, matnda ham shunday “tahrirlar” bor[3.19-22].

Shuningdek, 20-23 bobgacha bo'lgan Haq sifatlariga, adolatda Allohning hidoyatiga chorlov qismi ham tushirib qoldirilgan[3.155]. Olamni yaralishiga bag'ishlangan 36-bobi ham tushirib qoldirilgan bo'lib, shu bobda ham, koinotda, olamda borliqni boqiy javhari Haq sifati xususida gap borgan[4.123-253].

Vaholanki, bob shunday satrlar bilan boshlanadi:

Azal subhikim chekti Fayyozi Jud,

Bori ofarinishqa naqshi vujud[3.200-201].

Ya'ni, azalda, olamni yaralish tongida o'z saxovati bilan olamdagi hamma mavjud narsalarga o'ziga xos vujud va shakl-shamoyil, rangi-surat bilan yaratdi. Zero, barcha narsaning vujudi Uning vujudidir.

Bizning nazarimizcha, sho'ro davrida, Mir Alisher Navoiy asarlarida ularning nasriy bayonida ham dostonlarning ilohiyot qismi, ya'ni mutafakkir asarlari falsafasining asosiy mag'zini tashkil qilgan bo'lib, ularni to'liq yoki qisman tushirib qoldirish orqali, asarlarning haqiqiy mazmunidan chalg'itish yoki umuman bebahra qoldirishdek katta g'arazli maqsadlar qo'yilgan. E'tiborli jihati shuki, Navoiy asarlarining aynan shu tushirib qoldirilgan qismlari olam, koinot, borliq, olamdagi boshqa ashyolar, ularning paydo bo'lishi ibtidosi va mavjudlik tarzi, intihosi (qiyomat – G'arb falsafasida apokaliptik falsafa)[2] kabi ontologiyaga oid qarashlar tizimi edi.

Bunday qisqartirilgan holda chop etish, nasriy bayon qilish, "tahrir qilish" holi mutafakkirning "Layli va Majnun" dostoni qismatida ham bo'lgan. Xususan, dostonning 1990-yil G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyatida chop qilingan nasriy bayonining, Olloh hamdi, payg'ambarimiz na'tiga bag'ishlangan dastlabki beshta bobi, tarixda o'tgan odil podshohlar, xalifalar madhiga bag'ishlangan ettinchi va sakkizinchi bobi va ilohiyotga bag'ishlangan ayrim boblar ichidan qisqartirilgan holda chop etilgan. Asarning birinchi bobida quyidagi olam va borliqqa oid quyidagi ilohiy talqinni ko'ramiz:

Ey ilmingg'a g'ayb sirri ma'lum,

Mavjudsen, o'zga borcha ma'dum[5.7].

Mazmuni: olamning g'oyibona ya'ni hamma sirlari faqat Senga ayon, inson ularni aqli bilan u sirlarni bila olmaydi. Faqat O'zing mavjudsan, boshqa hamma narsa (ma'dum) yo'qlikka mahkumdir.

Navoiy olamni anglash muammosida va xususan dinda ma'rifat ustuvor bo'lishi tarafdori bo'lgani holda, davr mafkurasi bo'lgan toat-ibodatni haddidan oshib ketganida ma'rifatga o'rin qolmasligini "Nazm ul-javohir"da kinoyali tarzda shunday ifodalaydi:

Gar ma'rifat o'lsa chorasoz yaxshi,

Toat ko'pidan ma'rifat ozi yaxshi[6.157]

Mazmuni: “Agar, har bir masalaga ma'rifat bilan yondashilsa uni chorasi topiladi, lekin, ilmu-ma'rifat muammolarni echimida etarli bo'lmasa yoki ma'rifiy yondashuvlar ixtilof keltirib chiqarsa, bunday holda ma'rifatdan itoat yaxshiroq” deganidir. Bu hol Navoiyning o'z darida olamga, borliqqa falsafiy munosabatdagi jaholatga munosib va murosasiz javobi sifatida qarash deyish mumkin. Vaholanki, asarlarining deyarli hammasida ana shu kabi kayfiyat va qarash ustuvor ekanligi yana bir marta takrorlash muhim.

Navoiy o'z salohiyati va imkoniyatlari bilan o'zi ko'plab avliyolarga ta'rif bergani kabi, “qutbidin”, “qutbil-millat” darajaga etsada, bir qancha avliyo darajasiga etishgan shayxlarga ustozlik qilgan va ularning o'zlari tomonidan pirligi e'tirof etilgan bo'lishiga qaramay, biror joyda na o'z asarlarida va na ularni tadqiq etgan olimlar, tarixchilar asarlarida uning o'zini din ilmidagi maqomi rasman aytilmagan. Masalan Shayx Navoiy deb aytilgan emas. Bu hol ilmiy-tadqiqotdagi bir ochiq masala bo'lib, uni aniqlashtirishni talab etadi.

Bizning nazarimizcha, Navoiyning tabiatidagi yassaviylik suluki, naqshbandiya tariqatiga xos o'ta kamtarinlik alomati bo'lib, u o'ziga yuksak ilmiy yoki dindagi maqomlardan ko'ra, shunchaki, oddiy musulmon bo'lish va Islom dini talablarini to'liq ado etish tarafdori bo'lgan buyuk faylasufligining isbotidir.

Bunga misol mutafakkirning “Xamsa”si yozib tugatilgani munosabati bilan sulton Husayn Boyqarodek shaxs uni o'zining piri deb e'tirof etishidir. Shuningdek, Navoiy islomdagi insonparvarlikning samarali tarzi bo'lgan xayriya faoliyatida hozirgi kungacha Navoiychalik mol-mulkini xayriya ishlariga sarf qilganlar juda kam topiladi. Mutafakkir o'z mulki hisobidan turli darajadagi imoratlarni o'zi(o'zining hisobidan) dan 12 mingdan ziyodroq qurdirgani yoki ta'mirlagani aytilgan. Undan tashqari, xonaqolarda, ko'cha va guzarlarda g'arib-miskinlar, etim-esirlar, madrasa talabalari, mudaris(mudarris)lari va boshqa xodimlari maoshiga bergan mablag'lari, hayit bayramlari va boshqa ommaviy-diniy marosimlarda katta miqdorda oziq-ovqat va kiyim-kechaklar tarqatgani o'zining “Vaqfiya” va boshqa asarlari, shuningdek Navoiy haqida yozilgan manbalardan ayon.

Hozirgi davr possovet makonda marksistik falsafa majburiy o'rgatilganligi va klassik falsafa yutuqlari inkor etilgani hamda u qariyb bir asr davom etgani sababli, ko'pincha klassik falsafani ayniqsa, ilohiyot bilan mutanosiblashgan falsafani ko'pchilik faylasuflar tushunolmaganlari uchun “hazm” qilishlari qiyin kechmoqda. Lekin, mumtoz Islom falsafasi mazmunidan qisman xabardorlar bo'lganlar esa ko'pincha ortiqcha mutaassiblik tomon ketib qolayotirlar. Ko'p hollarda ilmiy-ob'ektiv tahlil va mushohada doirasidan chiqib ketish hollari yuz berayotir.

Falsafada haligacha mafkuraviy xususiyatga ega bahsli muammolar saqlanib qoldi. Ayniqsa, borliq falsafasi juda bahsli, porodaksal xususiyatga ega bo'lgan munozarali savollar ko'p. Lekin, ajablanarli joyi shundaki, falsafa, xususan, ontologiya falsafaning dahosiman deydigan olimlar deyarli koinot sirlarini bilish uchun na teleskopdan foydalanib tadqiqot olib borayotganini, na Erdagi borliq va uning ichki mazmunini o'rganish bilan bog'liq tadqiqotda qo'lida mikroskop olib tadqiq qilayotganini ko'rmaymiz. Bu holatni ontologiya falsafada faylasuflarni "sirtqi faylasuflar" deyish to'g'riroq bo'ladi. Shu paytgacha to'plangan ilm va tajribalar qay darajada etarli yoki to'g'ri deyish mumkin. Chunki, hozir olam haqidagi nazariya va qonuniyatlarga XXI asr texnik imkoniyatlari sharoitida mutlaqo yangicha qarashlar va yondashuvlar kechayotir. Tabiat ilmi bilan bog'lik ilmlarda ham yangiliklar talay. Aynan ana shu ixtirolar, kashfiyotlar ontologik qarashlarda ham yangicha yondashuvlarni, ularning yangicha talqini va tavsifini talab qilmoqda.

Bizningcha, borliq va boshqa falsafiy hamda shar'iy masalalardagi ixtiloflar muammoning hozirgacha, yuqorida aytganimiz kabi, uchlik prizmasi (ilohiy, dunyoviy, ilmiy) da tahlil qilib, xolis xulosa chiqarish zaruriyatini talab qiladi.

Qur'oni Karimda ham ilm olish va uni tarqatishga oid ko'p ko'rsatmalar uchraydi. Ushbu buyuk kalomning ilk nozil bo'lgan oyati ham aynan ilm olishga targ'ib – "O'qi!" chaqirig'i bilan boshlangan. Xususan, Qur'on so'zi ham arabcha "Iqro" – o'qimoq so'zidan olinganligi e'tiborga molik. Qur'oni karimda "ilm" so'zi turli shakllarda 768 marotaba ishlatilganining o'zidan ham dinimizda ilmning o'rni beqiyos ekanini anglash mumkin[7].

"Hayratul-abror"da ilm osmonining yulduzlardek baland martabaliligi haqidakim, bilimsizlik tunini yoritish uchun «ayn»i quyosh, «lom»i oy, «mim»i kunduz belgilarini ko'rsatadi;

bilimsizlik shomining qorong'i ko'rinishi haqidakim, g'aflat chohini pastlik kechasida zohir qilib, bu kechada baxtsizlikdan hikoya aytadi;

olimning butun baxtsiz vujudining quyoshdek yuksakligi, johilning esa butun borlig'i boylik, mol (mol-davlat) bo'lsa ham tuproqdek xorligi bobida[1.69-70], dunyoning ishi yaratilgandan buyon dushmanlikdan iborat bo'lib, olimlar xor, johillar aziz. Bu bobda Navoiy ulug' olim, Abu Ali Ibn Sinoni misol qilib keltiradi. U afsus bilan, butun dunyo ilmlarini bilgan olimni boshiga falak bir dunyo g'amu-tashvish solib qo'yibti deb afsuslanadi. Bu erda aynan mafkuraviy ixtilof nazarda tutiladi[1.71].

Insoniyatga tabobat sirlarini ochib bergan Ibn Sinoni kofir, zindiq, deb tuhmat qilgan, zamonaviy astronomiyaga asos solgan Ulug'bekni sehr-joduda ayblaganlar ham ilmdan bebahra, burnining pastidan narisini ko'ra olmaydigan kaltabin, mutaassib va johillar edi[7].

“Mahbub ul-qulub”da: “Xiradmand uldurkim, yolgʻon demas, ammo barcha chin deguluk ham emas. Birovki koʻzi ahvaldur, chun xilqati xoliqdindur - anga ne madhaldur. Bu soʻzni aning yuziga qilmoq izhor bartaqdirki, chindur, ammo ne lutfi borki, Haq sunʻigʻa eʼtirozdur va nohaq birovga xijolat va oʻzungga nodonliq izhoridur va bir koʻngulga malomat. Bu nav' vahshatangiz chindin boʻl yiroqki, muloyamatimiz yolgʻon andin yaxshiroq”, deb jaholat va soxta mulozamat qoralanadi.

Ilm oʻrganmak din tavqiyati uchundur, yoʻqki dini jamʼiyati uchun. Xayrsiz gʻaniy – yogʻinsiz sahob va amalsiz olim - dobbaki anga yuklagaylar kitob[8.51]. Yaʼni,- xayr-ehsonni bilmaydigan boy, yogʻmay oʻtib ketadigan bulutga, amalsiz olim esa ustida kitob ortilgan ulovga (ot, eshak, tuya, xachir kabi) oʻxshaydi deb achchiq tanqid qiladi.

Mutaassiblashgan mafkuralar hukmron boʻlganda, bir soʻzni aytish yoki aytmaslik inson taqdirini hal qilgan va qilyapti ham. Masalan mutaassib diniy muhit sharoitida, kalima keltirmaslik yoki siyosat manfaatiga biror gʻoyani zid talqin qilib, haqiqatni aytish qattiq qoralangan boʻlsa, Shoʻro tuzumi davrida kim “Xudo” desa jazoga tortildi.

Navoiy insoniyatni hamma kulfatlardan faqat ilm-maʼrifat qutqarishiga daʼvat qilgan dahodir. “Xamsat ul-mutahayyirun”da: “Kimki olimni hurmat qilsa, Meni (yaʼni Ollohni) hurmat qilgan boʻladi”[9.7], degan Ollohiy kalomi bilan boshlanadi. “Nazm ul javohir”da esa: “koʻp toatdan oz maʼrifat yaxshi”[6.157] hikmati keltiriladi. Shuningdek, “Ilm (olimlar) majlisi – jannat bogʻiga oʻxshaydi”[9.173] deyilgan.

Alisher Navoiy umuman borliqqa, dunyoga boʻlgani kabi, din masalasida ham maʼrifiy, irfoniy yondashganligi, asarlarining deyarli har sahifasida targʻib qilganligi shunda. Uning “Sirojul mislimiyn”, “Risolayi tiyr andoxtan”, “Vaqfiya”, “Nasoyimul muhabbat”, “Ruhul quds” kabi asarlari aynan eʼtiqodiy masalalar mohiyatiga qaratilgan.

Butun dunyoning boshqa xalqlari ilm-fan vositasida qushning koʻzini nishonga oladigan qurol-aslaha, boshqa qudratli texnik ixtirolar yaratayotgan bir paytda biz osmondan chalpak kutib, azoimxonlik qilib turishimiz qanchalik toʻgʻri.

Pokistonning Islomobod tadqiqotlar markazi professori – Farrux Salimning musulmon dunyosi mamlakatlari taraqqiyotdan orqada qolib ketishining sabablari va tahliliy xulosalarida yorqin misollar va raqamlar musulmonlar ilmsizlik tufayli jaholatga ketayotganligi isbotlangan[10].

“Farhod va Shirin” dagi Abdulfavoris Shohgʻarib Bahodirga nasihat bobida, shahzodaga ilm-maʼrifatga oshno boʻlish, saltanatning barqaror boʻlishi, kishi nomini manguga qoldirishi, Iskandarning olimlar bilan bamaslahat faoliyat olib borgani, oʻzi ham olim boʻlgani, temuriy

sulton Mirzo Ulug‘bekni falakkiyot ilmi haqida, dunyoga ma‘lum va mashhur yulduzlar jadvali “Zijji Kuragoniy” haqida katta ta‘rif keltirgan. Aynan shu bobda Navoiyning shoh baytlaridan biri:

Erursen shoh — agar ogohsen sen,
Agar ogohsen sen — shohsen sen[11.360].

Ogohlik deganda, ilmlilik, ilm kuzgusidan qarash nazarda tutilgandir. Mirzo Ulug‘bek xususida “Majolisun-nafois” da ham ma‘lumotlar bor.

Bizning nazarimizda, hozirgiga o‘xshab, mafkura kerak, mafkura kerak emas, degan mavhum, tasmol-tavakkal yondashuv bizni xuddi shu kabi mavhumlikka, oqibat mahdudlikka olib boradi. Agar, mafkura fikrlar, g‘oyalar, qarashlar majmuasi bo‘lib, ular yaxshilik sari yo‘naltirilgan va taraqqiyotga xizmat qilsa, unday mafkura kerak va zarur. Ba‘zi totalitar mafkuralar kabi dogmatik va adolatsizlikka qaratilgan bo‘lsa, albatta uning ziyoni ko‘p bo‘ladi.

Agar Olloh Qur‘oni Karimda “sendan harakat mendan barakot” degan bo‘lsa, faqat hammasi xudodan deb o‘tirish aniq oqizlik, johillik bo‘lib qoladi. Donishmandlar, “nodon osmondan chalpak yog‘ishini kutib bir burda nonsiz qoladi” degan hikmatini hech vaqt unutmaslik kerak. Zero, shunday jur‘atsizlik, jaholatga yo‘g‘rilgan irim-sirimlardan iborat mafkura ham ziyondan-ziyon. Aynan, Navoiy asarlarida ko‘p o‘rinlarda ta‘kidlangan, Alloh Qur‘onda insonga aql nurini berib, uning erdagi xalifam degan da‘vatidan xulosa qilishimiz kerak.

Bizning nazarimizda, dinlar va mafkuralar o‘rtasidagi bahslar va keyinchalik qonli voqealarga aylangan munosabatlar silsilasi, ularning siyosiylashuvi, harbiylashuvi orqali kechgandir. Zero uning ibtidosi esa bu joy meniki, bu mulk meniki yoki bizniki qobilidagi duyoviy manfaatlar orqali kechgan va hozir ham shunday bo‘lib kelmoqda. Bu axloqiy sifatlardan, moddiy manfaatlar ustuvorlik bo‘lganda ma‘naviy tubanlashish alomati sifatida namoyon bo‘ladi. Avval, bu manfaatlar erda kechgan bo‘lsa hozir kosmik darajaga ko‘tarildi. Endi yirik va texnik taraqqiyotga erishgan davlat siyosiy doiralari “bu sayyora meniki” tarzida bahsga kirishmoqda. Ilgari oykumenlarga ega bo‘lgani kabi yoki kimning qadami oldin tekkan bo‘lsa o‘shaniki kabi bo‘lgan bo‘lsa, afsuski, bugun-butun davlat va mintaqalar manfaatlar to‘qnashuvi qurboni bo‘lib qolmoqda. Albatta, har bir taraf o‘z da‘vosi to‘g‘ri ekanligi ortidan o‘z mafkurasini yaratadi.

Aynan ilohiy manbaalarda dunyoviy manfaatlardan kechish va faqat e‘tiqod, ruhoniylar masalalar insoniyat tafakkuriga singdirilganda komillik namoyon bo‘lib, hozirgacha bo‘lgan kulfatlar boshimizga tushmagan bo‘lardi.

G‘alati joyi shundaki, XX asrning birinchi yarmida bo‘lib o‘tgan ikkita jahon urushi oqibatida qariyb 100 000 000 dan ziyodroq insonning qirilib ketishiga olib kelgan Evropa siyosatdonlari haligacha o‘zlarini demokratiya fidoiysi deb da‘vo qilib kelayotganligida deyish

mumkin. Undanda yomon jihati shundaki, hozirgi kunlarda insoniyatning boshiga tushgan og'ir kulfat – pandemik holat kelgan paytda ham yirik davlatlar o'rtasida harbiy qudratini ko'rsatish vositasida o'z manfaatlari yo'lidagi mafkuraviy janglar hech susaygani yo'q.

Ilohiy manbaalar, mifologik asotirlarda insonlarning boshiga kulfatlar, ularning yomon niyatlari, yomon amallari, qilgan gunohlari oqibatida keladi degan aqidalar o'z isbotini ko'rsatib qolmoqda. Bu ma'noda insoniyatning gunohlari va ko'radigan ko'rgiligi ham ko'p bo'ladi deyish mumkin.

Sho'ro daridagi Navoiy merosi xususan, falsafasiga bo'lgan munosabatni quyidagicha baholash mumkin:

- Sovet davri voqeiy'ligida Navoiy merosi o'sha davr va tuzum mafkurasi ruhida tadqiq va talqin qilindi. Xususan, Navoiy falsafasidagi diniy falsafa mutlaqo olib tashlandi;

- Navoiyning ijtimoiy-siyosiy falsafasidagi adolatli shohlar obrazi g'uyoki, aynan marksizm va leninizm g'oyalari mos tarzda "progressiv" "revolyusion" g'oyalar bo'lganligi tarzida targ'ib qilindi;

- Uning inson erki bilan bog'liq g'oyalari aynan sosializm va kommunistik g'oyalarga mos ekanligiga urg'u berildi. Hatto ayrim tadqiqotchilar, garchi Navoiy markisizm (uning asoschisi K.Marksdan) davridan ancha ilgari yashagan bo'lishiga qaramasdan uning qarashlari marksizm, uning klassik asoschilar g'oyalari ta'sirida shakllangan deyishgacha borishdi;

- Navoiy asarlari qahramonlari va jamiyat hayotidagi ijobiy o'zgarishlar rivoji, unga da'vat va rag'bat qilish hollarini inqilobga chorlov talqinida – uni inqilobchi shoir sifatida urg'u berildi;

- Navoiyga umumiy ta'rif berilganda, o'rta asr feodal saroy shoiri, feodal-klerikal adabiyot vakili sifatida baholandi;

- Navoiyning riyokor shaxslar ayniqsa, siyosat va din arboblari oddiy xalqqa o'tkazgan jabru-zulmini ifodalagan asarlari, g'azallarini o'rganish, targ'ib qilish orqali, jamiyatning dinga nafratini oshirish va uni insoniyatni dushmani sifatida yo'q qilishga qaratilgan edi. Shuning uchun, maktab, oliy ta'lim manbalarida shu ruhdagi "Soda shayx", "Mehriboni topmadim", "Riyokor shayxlar zikrida" kabi asarlarini o'rganishga asosiy urg'u berilgan edi.

Alisher Navoiy hayotlik paytida nafaqat, o'z qarashlari bilan faqat ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-falsafiy masalalarda kurashdi, uning faoliyatidagi murakkablik shunda ediki, faoliyatining falsafiy zamini til bilan bog'liq muammo bo'lganligini aytish muhim. O'sha davr Xurosoni, faqat Hirotda, faqat saroy muhitida turkiy tilda so'zlashilar edi. Qolgan barcha aholi forsiyzabon. Ana shunday murakkab vaziyatda Mutafakkir turkiy tilni buyuk til ekanligi isbotlay olishi, tasavvurga sig'maydigan darajada qiyin edi. Navoiy o'zi bashorat qilganidek uning nafaqat

tirikligida, balki, o'lganidan keyin ham asrlar davomida o'zining mozori ham ta'qib qilinishi, ruhi chirqirab qolishi darajada munosabatda qolib kelmoqda. Bu ham afsuski, mafkuraviy yondashuv natijasidir. Bunday noxolis mafkuraviy munosabatni u o'zi bashorat qilib shunday deydi:

Buzuq qabrimni ko'rgan o'qchi do'konig'a o'xshatgay,

Firoqing o'qidin anda ko'rib paykoni par har yon[12]

Achinarlisi shundaki, XXI asrda, YuNESKO boshchiligida Navoiydek dahoning qabrini qayta ta'mirlash uchun uni vayron qilinib, har xil bahonalar bilan qayta tiklashni paysalga solib kelayotir.

O'zbekiston davlati va hukumatining Navoiy qabri va uning atroflaridagi inshootlarni qayta tiklash, obodonlashtirish uchun ajratilgan mablag' va sa'yi-harakatlarga qaramasdan, Afg'oniston hukumati va YuNESKO, maqbara "Temuriylar davri arxitekturasiga mos emas" degan vaj bilan qurilish ishlarini to'xtatib qo'ygan[12].

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 31 mayda buyuk shoir va mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy maqbarasini ta'mirlash va tiklash, uning atrofini obodonlashtirish loyihasiga alohida e'tibor qaratdi.

Afg'onistonning Hirot shahridagi Alisher Navoiy maqbarasi majmuasida qurilish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish imkoniyatlarini o'rganib chiqish vazifasi Prezidentimizning 2020 yil 19 oktyabrdagi "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarorida belgilangan edi[13]. Ushbu Qaror ijrosini ta'minlash doirasida mamlakatimiz mutaxassisleri afg'onistonlik hamkasblari bilan birgalikda maqbarani joyida o'rgandi. O'rganishlar natijasida an'anaviy me'morchilik, san'at va bezak elementlaridan foydalangan holda maqbarani ta'mirlash va tiklash loyihasi ishlab chiqildi[14]. Lekin, afsuski, Afg'onistondagi hozirgi, birodarkushlik urushlari avjiga chiqqan vaziyatda, bu vazifa amalga oshiriladimi, agar amalga oshirilsa qachon bo'lishi hozircha gumon va armonligicha qoladi. Vaholanki, bu aynan Navoiyning armonlari edi.

Xulosa. Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy falsafiy qarashlarining nazariy asoslari, uning falsafiy merosiga turli davrlarda bo'lgan munosabat va ularda muayyan davrning mafkuraviy muhitiga bog'liqligi baholi qudrat tahlil qilindi. Navoiy falsafiy qarashlarining nazariy asoslariga bag'ishlangan birinchi paragrafida quyidagilar bayon qilingan:

- Alisher Navoiy falsafiy dunyoqarashi, tafakkuri shakllanishi xolis ilmiy-ob'ektiv tarzda bayon qilindi;

- Navoiyning o'zigacha bo'lgan davrlar falsafasi, qadimgi Misr, Bobil, boshqa arab xalqlari falsafasi, Hind, Xitoy, Yunon, Markaziy Osiyo falsafiy durdonalarining chuqur o'rganganligi

aynan shu manbalar uning falsafiy tafakkurini shakllanishi va takomilida xizmat qilganligi, bu jihatlar mutafakkir asarlarida o'z aksini topganligi;

- Navoiy falsafiy, ontologik qarashlarining bosh manbasi – Islom dinining muqaddas manbasi hisoblangan – Qur'oni karim, sahih hadislar va boshqa ular asosida yaratilgan ilohiy manbalar ekanligi;

- Islom olamining yirik darg'alari, mashhur shayxlar, imomlar, hadisnavislar, tasavvuf tariqatlar va suluklar asoschilari merosidan bahramand bo'lganligi. Bu hol uning “Nasoyimul-muhabbat”, “Majolisun-nafois” kabi asarlarida o'z aksining topganligi;

- Uning badiiy va falsafiy qarashlarida va ijodiy manba bo'lgan, o'zining salaflari deb hisoblagan Sharq mumtoz adabiyoti darg'alari, ulug' xamsanavislar - Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, zamondoshi va ustoz Abdurahmon Jomiylarning o'rni beqiyos bo'lganligi va boshqa jihatlar bayon qilindi;

- Navoiy merosi, xususan, uning falsafiy qarashlari, uning asosini tashkil qilgan borliqqa oid qarashlari talqinida turli davrlar ijtimoiy-mafkuraviy muhitning ta'siri xususida fikr yuritildi. Bu mavzuda xususan:

- Navoiy yashagan davrida ham uning ijodi va amaliy faoliyatiga xayrixohlar va tarafdorlar bo'lgani kabi, unga doimiy adovat bilan qarashlar va harakatlar ko'p bo'lganligi;

- bu o'rinda Navoiyning turkiy-o'zbek tilining badiiy imkoniyatlarini isbotlash va amalga oshirishdagi chekkan zaxmatlari, unga bu yo'lda qilingan qarshilik va g'ayriklilar keltirildi;

- Navoiyning o'zi borliq xususidagi mafkuraviy pozitsiyasi - olam, borliq, jamiyat bilan bog'liq masala va muammolarda o'ta mutaassiblik, o'ta zohidlik tarafdori bo'lmasdan, balki, irfoniyl, ma'rifiyl qarashlar va harakatlar tarafdori bo'lganligi va bunday qarashlari uchun o'z zamondoshlari va merosini o'rgangan tadqiqotchilarning mafkuraviy yondashuvlaridan kelgan natija va oqibatlar;

- Navoiy falsafiy merosiga sovet voqeligi sharoitida bo'lgan repressiv munosabat, uning oqibatida mutafakkir asarlarining asl mazmuni tadqiqi va amaliy targ'ibotidagi noxolis, ayni paytda g'arazli siyosiy-mafkuraviy munosabatning mohiyati yoritildi;

- har qanday masalaga noxolis, totalitarlashgan mafkuraviy yondashuv hamma joyda va davrda faqat yomon oqibatlarga olib kelganligidan xulosa chiqarish va uni takrorlamalik lozimligi aytilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. Hayratul-abror (nasriyl bayoni) G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, -Toshkent, 1974. –B.145.

2. Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalari № 68 (Xalqaro konferensiya materiallari). 2023-yil 8-fevral. 443 b. URL: https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12696_1_11D1BFF43751EBD7F0F5140459C84C49A287820A.pdf
3. Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 11 t. Xamsa: Saddi Iskandariy. - Toshkent: "Fan", 1993.
4. Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 10 t. Xamsa: Sab'ai sayyor. -Toshkent: "Fan", 1992. –B. 64-70.
5. Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 9 t. Xamsa: Layli va Majnun. - Toshkent: "Fan", 1992.
6. Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 15 t. Nazm ul-javohir . -Toshkent: "Fan", 1999.
7. Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay. Internet manbaa, Murojaat sanasi: 10.10.2018. URL: <http://uza.uz/oz/society/dunyeda-ilmdan-bosh-a-nazhot-y-va-b-lmagay-10-10-2018>
8. Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 14 t. Mahbub ul-qulub. - Toshkent: "Fan", 1998.
9. Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 15 t. Xamsat ul-mutaxayyirin. - Toshkent: "Fan", 1999.
10. Руслан (Абдуль-Басит) Микушкин. Сколько мусульман в мире. Internet manbaa, URL: <https://medinaschool.org/library/obshestvo/istoriya-islama/skolko-musulman-v-mire>
11. Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 8 t. Xamsa: Farhod va Shirin. T.: "Fan", 1991.
12. Посещение гробницы А Навои в Герате. Internet manbaa, URL: https://www.youtube.com/watch?v=iTn_mLpo5N4
13. O'zbekiston Prezidentining "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida" 2020 yil 19 oktyabrdagi Qarori. Internet manbaa, Murojaat sanasi: 19.10.2020. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/3905>
14. "Yangi O'zbekiston" gazetasi. 2021 yil 1 iyun.№110(366) soni.